



BADIIY ASARLARDA ONA LISONIY SHAXSIYATINING IFODALANISHI

To‘rayeva Lobar Sobir qizi

Termiz davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: D.A.Ergasheva

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi bosh obraz ona lisoniy shaxsining nutqi tahlil qilinadi. Ona lisoniy shaxsi nutqi tahlilida uning farzandiga bo‘lgan mehri, atrofdagilarga iliq munosabati, boshqalarning farzandlarini o‘z farzandidek ko‘rishi, kuyunchakligi, ayrim o‘rinlarda onaning farzandini koyishi kabi qator holatlar aks ettiriladi. Mavzuni aniqroq yoritishda asardagi ona va o‘g‘il o‘rtasidagi dialoglardan foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, lison, nutq, lisoniy shaxs, dialog, O‘tkir Hoshimov, “Dunyoning ishlari”.

Abstract: In this article O‘tkir Hoshimov’s “Works of the World” the speech of the main character in the work of a native speaker is analyzed. In the speech analysis of a mother linguistic person, her love for her child, her warm attitude to the surrounding people, seeing other people’s children as her own children, playfulness, and in some places the mother’s emotional states are reflected. From the dialogues between the mother and the son in the play, in a more accurate explanation of the topic is used.

Key words: speech culture, language, linguistic personality, dialogue, O‘tkir Hoshimov, “Works of the World”.

Аннотация: В данной статье анализируется речь матери-языковой личности, главного героя произведения Уткира Хашимова “дела мира”. В анализе речи матери-



языковой личности отражается ряд обстоятельств, таких как ее привязанность к ребенку, теплое отношение к окружающим, видение чужих детей собственными, привязанность, а в некоторых местах и подавленность ребенка матерью. Для более точного освещения темы используются диалоги матери и сына в произведении.

Ключевые слова: культура речи, язык, речь, языковая личность, диалог, остроумие, “Дела мира”.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida tilni inson omili bilan bog‘lab o‘rganuvchi qator tadqiqotlarda til egasi, lisoniy shaxs, lisoniy ong, nutqiy faoliyat, nutq vaziyati, lisoniy zahira kabi tushunchalar badiiy matn tahlilida keng tahlil va talqin qilinmoqda. Ma’lumki, lison faqatgina insonga in’om etilgan ne’mat, shu boisdan lisoniy hodisalar tadqiqi boshqa ijtimoiy hodisalar tadqiqidan tubdan farq qiladi. Tildan foydalanish jarayonida insonning shaxs xususiyatlari turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Aynan shaxs tushunchasida insonning tabiati birinchi o‘ringa ko‘tariladi, uning o‘zi esa, ijtimoiy-madaniy turmushning subyekti sifatida ishtirok etadi.

Har qanday yozuvchi o‘z asarida lisoniy shaxs tiplarini yaratishda milliylikka tayanib ish ko‘radiki, bu millat qadriyatlarining shakllanganlik darajasini ham namoyon etadi. Zero, Sh.Maxmaraimova ta’kidlaganlaridek, “...madaniyat va madaniy an’analar markazida o‘z turfa qirralarini namoyon etuvchi, jismoniy, ijtimoiy, intellektual, hissiy, fikrlovchi va h. xususiyatli lisoniy shaxs masalasi turadi”. [1. 19-b]

Badiiy matnda yozuvchi qahramonlarning turli lisoniy shaxs tiplarini yuzaga chiqaradi. Bunda uning til vositalaridan foydalanish mahorati ishga tushadi. Badiiy matnda qo‘llangan bunday vositalar asar qahramonining yoshi, milliy-madaniy qarashi, millati, voqelikka munosabati, nutq egalarining ruhiy holatini ham ifodalaydi:

Onam ma’yus jilmaydi:

– *Uyqu qatta, bolam? O‘-o‘tiribman.*



- *Bilasan-ku, jon bolam, kamuyqu bo‘lib qolganman.* [O‘tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari,6-b]

Ushbu dialogda qahramonlar nutqi orqali ona va o‘g‘il lisoniy shaxs tiplarini anglash mumkin. Muloqot jarayonida nutq egalarining nutqida o‘zbek millatiga xoslik ifodalangan. Dialogda ona nutqidagi *uyqu qatta, bolam? O‘-o‘tiribman, bilasan-ku, jon bolam, kamuyqu bo‘lib qolganman* kabi birliklar qahramonning kuyunish, achinish kabi ruhiy holatini ifodalagan mehribon ona lisoniy shaxs tipini yuzaga chiqargan.

- *Nima, or qilyapsanmi?-dedi bir muddat xomush o‘tirgach. -Men o‘g‘irlik qilayotganim yo‘q-ku, bolam. Mehnatning aybi bormi?* [O‘tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari,10-b]

- *Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o‘lib qoladi!*

- *O‘lib qoladi! Bolaginam o‘lib qoladi!* [O‘tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari,15-b]

Bu monologdan onaning farzandi ozor chekishini jimgina kuzatib turmaslik onaga xos xislat emasligi ta’kidlangan. Ona shunday shaxski, kezi kelsa bolasisiz ushoq ham tomog‘idan o‘tmaydi, bolasining azob chekishini jimgina kuzatgan, farzandiga nisbatan beparvolikni o‘ziga loyiq ko‘rgan ona ona mehridan bebahra, jonsiz bir buyum kabidir. Chunki ona farzandi bilan onadir.

- Hoy, qizim, bola-ya bu, bola-ya!-onam chumchuqdek chirqillab juvonga yopishdi. -Kel, jonim,-dedi bolani bag‘riga bosib. -Kela qol, o‘zim senga issiq morojniy olib beraman.* [O‘tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari,20-b]

Ushbu dialogda ona uchun bolaning begonasi bo‘lmasligi, u uchun barcha bola birdek bola ekanligi, boshqaning farzandiga o‘z farzandi kabi mehr ko‘rsatishi anglashilgan.

- *Sen mening suyangan tog‘imsan, o‘g‘lim...* – gapida onaning farzandiga bo‘lgan ishonchi har doim mustahkamligi, onaning farzandga suyanib yashashi e’tiborga olingan. [O‘tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, 29-b]



- *Voy, o'zimning toychoq o'g'limdan aylanay! Voy, o'zimning o'g'lim kelib qolibdi-ku!*
– gapidan ona uchun farzand har qancha yoshda ham go'dak ekanligi, bolasini har doim erkalab, suyishi anglashilgan. [O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, 32-b]
- *Yura qol, jon bolam, yaqin qoldi.* [O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, 65-b]
- *Mana, meni aytdi dersiz. Eringiz sizni jonidan yaxshi ko'radi. Ko'nglim sezib turibdi. Bugun-erta apoq-chapoq bo'lib ketasizlar.* [O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, 69-b]
- *Jon adasi, aylanay adasi, johillik qilmang, keling, shular to'ya qolsin. Mayli, sholchani sotamiz.* [O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, 91-b]
- *Qizim berdi! Qarang, piyolasining chiroyliligini qarang! Voy, o'rgilay sizlardan, shundoq qizim bor ekan-u men ahmoq bilmay yurganimni qarang! U bog'-rog'lar, u oq uy-olabargaklar desangiz! Qo'sha-qo'sha gilamlar! Bir radiosi bor, sandiqdek keladi. Qizimning chaqqonligini ko'rsangiz. Birpasda bir guruch, bir go'sht qilib, chigit bosgandek osh damlab keldi. Kuyovimni aytmay sizmi, peravodniylarning boshlig'i ekan. Uyog'i Ashxobod, buyog'i Leninobod-yetti iqlimda ko'rmagan joyi qolmabdi. Biram odobli, biram aqlli...* [O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, 104-b]
- *Mana shu bolamga pufayka olib bermoqchiman. Adasi besh yuzdan kamiga ko'nma deganlar.* [O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, 111-b]
- *Voy, gapingiz qurmasin!-oyim uning yelkasiga qoqdi.-Qo'ying-e, nima, men payg'ambar bo'pmanmi? Jahl ustida aytgan bo'lsam, ming marta qaytib oldim, o'rgilay!-U choy quyib uzatdi.-Shuni o'ylab yuribsizmi hali? Qo'ying, o'zingizni bosing. Meni aytdi dersiz, opovsi, ichingiz to'la bola. Hali shunaqa qo'sha-qo'sha o'g'illar ko'rasizki, og'ziga kuchi yetmaganlar uyalib qoladi, aylanay!* – bu gapdan so'ng kitobxon xayolida har qanday vaziyatda ham noumid bo'lmaslik kerakligi tushunchasi anglashiladi, kitobxon ko'z oldida bir onaning , nafaqat, o'z jigarbandi, balki kuyunchakligi sababli begonalarini ham umidsizlikdan qutqarib, dalda beruvchi, har doim qo'llab-quvvatlovchi shaxs timsoli gavdalanadi. [O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari, 183-b]



-Agar shu bolaga endiyam ichirsang, norozi bo'laman! Kecha yiqilib ketishiga sal qoldi. Birovning bolasi mayib bo'lib qolsa, Xudo nima deydi! [O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari,185-b]

-Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim. [O'tkir Hoshimov, Dunyoning ishlari,205-b]
“Iltijo” qissasining eng so'nggi hikoyasida adib o'z hayotidagi muhim voqeani eslaydi, onasi hayotligida qancha asar yozgan bo'lsa ham, onasiga atab bir asarni bag'ishlamaganligiga afsuslanadi va shu parchadagi eng at'sirli jumla: **“Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim”**, degan so'zlar bo'ladi.

Qissadagi “Ona” obrazi, muallifning onasi o'z harakatlari, qarashlari, fikr-mulohazalari bilan aynan sharq ayoli obazini to'liq tasvirlaganini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Muallif onasining xislatlari qatorida hayot yo'lida qanchalik mashaqqatlar ko'rgani, qiyinchiliklarni yenganiga qaramasdan, bola singari ochiqko'ngil va sodda inson bo'lib qolgani o'quvchining e'tiborini o'ziga tortadi.

Badiiy matnda qahramonlar nutqi orqali ularning turli lisoniy shaxs tiplarini ajratish mumkin, ya'ni oilada ota-ona, qiz, o'g'il, buvi, buva, qarindoshlik lisoniy shaxs tipida tog'a, amma, xola, aka, uka, singil, jamiyatda esa kasbiy jihatdan o'qituvchi, shifokor, quruvchi, hisobchi va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda lisoniy shaxsning shakllanishida ta'sir etuvchi omillarni o'rganish; yozuvchi mahoratini belgilashda; til imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olishini baholashda muhim ahamiyatga ega. Shu kabi lisoniy shaxslardan biri ona lisoniy shaxsi, nafaqat, O'tkir Hoshimov, balki hamma-hamma adiblar uchun navqiron, adabiy tugallanmas ilhom manbaidir. “Ona” tushunchasi, nafaqat, adib, shoir, yozuvchilar uchun, balki butun bir jamiyat, butun dunyo uchun yuksak ahamiyatga ega mavzudir. Badiiy asar o'qish bizni ham ma'nan, ham jismonan tarbiyalaydi. “Dunyoning ishlari” qissasida muallif har bir farzand vaqtida onasini qadriga yetishi va uning oldidagi burch hamda vazifalarini bajarishi lozimligini eslatadi. Chunki onasiz hayot bir zulmat kabidir. Vaqtida qadriga yetmagandan keyin yo'qotib bo'lib afsus chekish befoydadir. Shuning



uchun ham har narsani o'z vaqtida qadriga yetmoq kerak. O'ttizta novellani o'zida jamlagan ushbu asar o'zbek onalarining kechinmalari, his-tuyg'ulari, go'zal xislatlarini ochib berish bilan birga, farzandlar uchun nasihat hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'tkir Hoshimov.-Dunyoning ishlari: Qissa.-Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2019. - 208 b.
2. Ahmad.S. Dunyoning ishlari qissasi haqida [elektron kitob] // <https://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o'zbek/pdf/o'tkir-hoshimov/dunyoning-ishlari-qissa/#gsc.tab=0>
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. – Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiya", 2009. -416 b.
4. B.Mengliyev. – Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: Tafakkur bo'stoni, 2018.
5. R.Safarova "Leksik -semantik munosabatlarning turlari". -Toshkent "O'qituvchi". 1996.
6. Sh. Rahmatullayev . Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T., 2006.
7. Sh. Rahmatullayev . Nutqimiz ko'rki.- T. ,1970
8. A.J. Omonturdiyev, Sh .I. Abduraimova . O'zbek nutqi madaniyati va notiqlik san'ati. – T., 2016.
9. Qudratov.T. - Nutq madaniyati asoslari. - T.,1993.